



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Demak, hozirgi kunda ona tili ta'limida o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasi rivojlantirish usullari :miy ravishda diqqat markazida turgani o'rinlidir. Matnlar vositasida o'quvchilarda o'qib tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga :r test va topshiriqlar ham :miy yangilanishni talab qilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent: ToshDO' TAU, 2022. 530 b. 27-30 betlar.

2. Tursunova D. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matn bilan ishlash usullari. Topical issues of Science. 2022.

References:

1. Abduraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent: ToshDO' TAU, 2022. 530 b. 27-30 betlar.

2. Tursunova D. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matn bilan ishlash usullari. Topical issues of Science. 2022.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QDDN4565

**OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI
O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR**

Tursun Shokirjon Alisher o'g'li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi, "Synergy School" NTM o'qituvchisi*
shokirtursun@hotmail.com
ORCID: 0009-0000-9313-0522

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida o'qitiladigan Lingvodidaktika asoslari fanining eng muhim mavzularidan biri – "Til o'rganish va til o'zlashtirish" mavzusini o'qitish jarayonida qo'llanadigan usullar androgogik va dizaynga asoslangan dars rejalashtirish yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Darsning kirish qismi, ma'ruzadan keyingi topshiriqlar, amaliy dars uchun tavsiyalar, baholash va refleksiya jarayoni dizaynlashtiriladi. Har bir bosqichining metodik, psixologik va ilmiy asoslari yoritilib, samaradorlik nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *til o'rganish, til o'zlashtirish, adrogogika, motivatsiya, faollashtirish, refleksiya, vizual xaritalash.*

Аннотация. В данной статье на основе андрогогического и дизайнерского подходов к планированию уроков анализируются методы, используемые в процессе преподавания одной из важнейших тем дисциплины «Основы лингводидактики», преподаваемой на этапе высшего образования темы «Изучение языка и овладение языком». Проектируется вводная часть урока, задания после лекции, рекомендации к практическому занятию, процесс оценки и рефлексии. Освещены методические, психологические и научные основы каждого этапа, теоретически обоснована эффективность.



Ключевые слова: изучение языка, овладение языком, андрогогика, мотивация, активизация, рефлексия, визуальное картирование.

Abstract. This article analyzes the methods used in teaching the topic "Language Learning and Language Acquisition" which is one of the most important topics of the Fundamentals of Linguodidactics taught at the higher education level, based on andragogical and design-based lesson planning approaches. The introductory part of the lesson, post-lecture tasks, recommendations for the practical lesson, the assessment and reflection process are designed. The methodological, psychological, and scientific foundations of each stage are highlighted, and the effectiveness is theoretically substantiated.

Keywords: language learning, language acquisition, androgogy, motivation, activation, reflection, visual mapping.

Oliy ta'lim bosqichidagi dars faqat bilim berishga emas, balki mustaqil fikrlovchi, tadqiqot va tahlil ishlarini amalga oshiruvchi, muammoni yechuvchi mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu bosqichda o'qiyotgan talabalar aqlini tanigan, voyaga yetgan shaxslar bo'lgani uchun darslarga androgogika (kattalar ta'limi) tamoyillarini ham singdirish lozim bo'ladi. Androgogika nazariyasiga ko'ra, katta yoshdagi o'rganuvchilar o'z tajribasiga tayanishni, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan ta'limni va amaliyotgan tatbiq etiladigan bilimni afzal ko'rishadi (7: 18). Shu sababli oliy ta'limda "Til o'rganish va til o'zlashtirish" mavzusini o'qitish jarayonining (darsning) har bir bosqichi puxta dizaynlashtirilgan va androgogik tamoyillarga asoslangan bo'lishi zarur. Mazkur maqolada aynan shunday yondashuv asosida tashil etiladiga dars ishlanmasini taklif etamiz va uni tahlil qilamiz.

Kirish va faollashtirish bosqichi. Darsning dastlabki 10 daqiqasi talabani mavzuga hissiy va aqliy jihatdan tayyorlashga qaratilishi lozim. Psixologlar fikricha, inson miyasi o'ziga tegishli, tajriba asnosida tanish bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan faolroq ishlaydi, talabalar mavjud bilimlarini faollashtirganda, yangi bilimni unga bog'lab olish osonlashadi. [3: 10]. Darsni ochiq savol bilan boshlash avvalgi bilimlarni faollashtirishning eng yaxshi usullaridan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib darsni quyidagi savollardan birini berish bilan boshlash mumkin:


Sizningcha, odam tilni qanday o'rganadi: so'zlarni yodlabmi, mashq qilibmi, tinglabmi...? Siz ona tilingizni qanday o'rganib olgansiz?

Bu savol shaxsiy tajribani faollashtiradi, talabalarda bilimini qayta ko'rib chiqish ehtiyojini – darsga bo'lgan motivatsiyani uyg'otadi. Kattalar ta'limida shaxsiy tajriba asosiy resurslardan hisoblanadi [1: 71]. Bu yondashuv Jon Kellerning ARSC modeli ham fikrimizni isbotlaydi. Unga ko'ra, diqqatni jalb qilish, bilimlarni muvofiqlashtirish, ishonch uyg'otish va qoniqish hosil qilish biror narsani o'rgatishning poydevori hisoblanadi [6: 2–4]. Biz yuqorida berayotgan ochiq savol ham ayni diqqat jalb qilish va muvofiqlik bosqichlariga mos keladi.

Ma'ruzadan keyingi bosqich. Ma'ruza qismi yakunlangach, talabalarda vizuallikni oshirish yaxshi samara beradi [11: 15–54]. Bunda talabalar ma'ruzadagi ma'lumotlarni vizuallashtirish orqali xotirada yaxshi saqlab



qolishga erishishadi. Bundan tashqari turli usullarda vizuallashtirish talabalardagi tahliliy fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradi. Novak va Gowin klaster usuli samarali ekanini, ammo undan ham samaraliroq usullar borligini ta'kidlar ekan, konseptual xaritalarni (tushunchalar xaritasi) talabalar bilimini chuqurlashtirish va tushunchalararo aloqalarni anglashga undovchi kuchli vosita sifatida ta'riflaydi [11: 15–54]. Yana bir tadqiqotda esa o'z-o'ziga tushuntirish, o'ziga o'rgatishini faollashtirib, metakognitiv anglash darajasini oshirgani aniqlangan [4: 151]. 2006-yili Jon Nesbit hamda Olusola Adesope tomonidan olib borilgan meta tahlilga ko'ra, konseptual xaritalar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan ta'limiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirar ekan [10: 445]. Konseptual xaritani quyidagi ko'rinishda o'quvchilarga taqdim qilish va to'ldirishni so'rash mumkin. Konseptual xaritalarni yaratishga ixtisoslashgan maxsus dasturlar mavjud, dars davomida ulardan foydalanish



imkoni bo'lmaganda, doskada yoki qog'ozda guruh bo'lib ishlash jarayonini tashkil etish mumkin.

Bu bosqichda konseptual xaritadan tashqari boshqa usullarni ham qo'llash mumkin:

Venn diagrammasi – o'rganish va o'zlashtirishni qiyoslash uchun juda mos. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Venn diagrammalari o'quvchilarda tahliliy fikrlashni rivojlantirish va tushunchalararo tafovutni anglash uchun samarali vositadir, u talabalar bilimini chuqurlashtirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi [9: 8–10].

Jadvalli tahlil – nazariyalarni (masalan, bixeviorizm, tabiiy tartib) asosiy mezonlar bo'yicha tizimli ko'rinishda solishtirish. Ushbu yondashuv orqali talabalar tushunchalar orasidagi farqlarni aniqroq anglab yetadi. Jonassen ta'kidlaganidek, strukturaviy grafiklar va taqqoslovchi jadvallar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini kuchaytiradi va murakkab g'oyalarni tartibga solishga yordam beradi [5: 210].

Flovchart – qaysi nazariya qanday shakllanib kelganini tushuntirish uchun qulay usul. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oqim jadvallari murakkab



jarayonlarni ko'rgazmali shaklda ifodalash orqali o'quvchilarning tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Larkin va Simon o'z tadqiqotida grafik formatdagi axborot (masalan, flovchart) matnga qaraganda ko'proq bilimni saqlab qolish va tahlil qilishga yordam berishini aniqlagan [8: 70].

Ushbu usullar ham andragogik prinsiplar – ya'ni o'z-o'zini boshqarish, tajriba asosida o'rganish va muammoni hal qilishga yo'naltirilganlikni ta'minlaydi.

Amaliy dars uchun tavsiya. Ma'ruza darsi yakunlangach, amaliy mashg'ulotni KEYS STADI texnologiyasi asosida o'tkazish yaxshi samara beradi. Jonassen KEYS STADIn "authentik muammo yechimi" deb atab, real muammolar ustida ishlash talabalar bilimini chuqurlashtirishda samarali vosita ekanini ta'kidlaydi [5: 208]. Knovles esa kattalar ta'limida muammoga asoslangan o'rganish ichki motivatsiyani oshirishini isbotlagan [7: 15]. Talabalarga quyidagi (yoki shunga o'xshash) keyslar taqdim qilinadi:

1-keys: 7 yoshli bola rus maktabida o'qiydi, uydagilar faqat rus tilida gaplashadi. Bola o'zbek tilidagi matnlarni tushunmaydi. Bu holatda nimalar tavsiya qilinadi?

2-keys: katta yoshli o'quvchi ingliz tilini o'rganmoqda, biroq grammatik qoidalarni yaxshi yodlaydi-yu, gapira olmaydi. Nega bu sodir bo'lmoqda?

3-keys: chet elda yashayotgan o'zbek bolasi ingliz tilini yaxshi biladi, ammo o'zbek tilida so'z boyligi kam. Bu holat qanday tushuntiriladi?

Talabalar ushbu keyslar asosida:

- holatni nazariy yondashuvlar asosida tahlil qiladilar;
- muammo sabablarini aniqlaydilar (muhit, yosh, interferensiya);
- pedagogik yechimlar taklif qiladilar (metod, strategiya, topshiriq shakllari).

Bu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarini real vaziyatda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu andragogik tamoyillarga hamohang bo'lib, ularning muammoni tahlil qilish, tajribaga tayangan holda yechim topish, hamda muloqot asosida o'rganish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari qo'shimcha mini loyihalarni ham qo'llash mumkin. Har bir guruhga biror nazariya beriladi. Ular o'z nazariyasiga asoslangan mashg'ulot modelini ishlab chiqadi. Bu model ma'lum yosh guruhiga mo'ljallangan, metodik asoslangan, tilni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Misol uchun:

- bixevioristik yondashuv asosida taqlidga yo'naltirilgan so'z bloki mashqlari;
- kognitiv yondashuv asosida ramzlar va kontekst asosida ishlovchi vizual topshiriqlar;
- tabiiy tartib yondashuvi asosida grammatik qoidalar ketma-ketligi.

Baholash bosqichi. Amaliy mashg'ulotga bajarilgan ishlarni baholashda ham ularning sifatiga diqqat qilish lozim bo'ladi. Quyida baholash mezonlarini taklif qilamiz. Ushbu baholash mezonlarini darsning boshida e'lon qilish kerak bo'ladi.



Bu talabalar o'zlaridan nima kutilayotganini yaxshiroq anglab olishlarida yordam beradi.

Ko'nikma turi	Mezonlar mazmuni	Ball
Tahlil va muammoni aniqlash	Keys stadida muammo sabablarini to'g'ri aniqlay olgan, holatni nazariy jihatdan izohlagan	0-5
Nazariy asoslash	Tavsiya yoki yechim tanlangan nazariya bilan bog'langan, ilmiy asosli	0-5
Pedagogik yechim taklifi	Taklif qilingan usul/metod konkret, amaliyotga yo'naltirilgan, o'quvchiga moslashtirilgan	0-5
Guruh ishtiroki va muloqot	Guruhda faol ishtirok etgan, fikr bildirgan, boshqalar fikrini hurmat qilgan	0-2
Ta'limiy loyiha sifati	Loyiha innovatsion, tushunarli va ta'limiy maqsadga xizmat qiladigan tarzda ishlab chiqilgan	0-5
Taqdimot va izoh berish	Loyiha taqdimoti mantiqiy, aniqlik bilan izohlangan, savollarga javob berilgan	0-3

Bunday baholash mezonlari Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlariga mos kelgani uchun ham samarali hisoblanadi. Kattalar ta'limida baholash jarayoni o'rganilayotgan narsaning amaliy qiymatiga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu baholash mezonlari talabani o'z fikrini shakllantirishga, o'z faoliyatini baholashga va real holatda yechim taklif qilishga undaydi [7: 20]. Muammo asosida o'rganish, loyiha ishlab chiqish va taqdimot – bularning barchasi real hayotdagi o'qituvchilik faoliyatini modellashtiradi. Bunday baholash shakli autentik baholash deb yuritiladi [12: 21–25].

Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan darsda qo'llangan dizaynli va andragogik asoslangan yondashuvlar talabalarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga, nazariyani amaliyotga tatbiq etishiga va o'zini anglashiga xizmat qildi. Har bir dars bosqichning o'ziga xos maqsadi bor: faollashtirish – motivatsiyaga, konseptual xarita – tizimlashtirishga, diagramma va jadvallar – tahliliy fikrlashga, keys stadi – amaliyotga tayyorlikka, baholash esa o'zini baholash va anglashga xizmat qiladi. Bunday ilmiy asoslangan metodik yondashuv, magistratura darajasida faqat bilim emas, balki metodologik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday darslar bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat bilim, balki ta'limiy refleksiya, metodik yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O. M., Abdullayeva M. A., Boltaeva M. Androgogika (o'quv qo'llanma). – Namangan: Namangan, 2014. – 114 b.
2. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longman. 1956. – P. 403.



3. Bransford, J. D., Brown, A. L., Cocking, R. R. / How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. National Academy Press: 2000. – P. 374.
4. Chi, M. T. H., de Leeuw, N., Chiu, M. H., LaVancher, C. Self-explanations: How students study and use examples in learning to solve problems. // Cognitive Science, 1989. 13(2). – P. 145–182.
5. Jonassen, D. H. Designing Constructivist Learning Environments. In C. Reigeluth (Ed.), / Instructional Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. Routledge: 2013. – P. 728 (207–232).
6. Keller, J. M. Development and use of the ARCS model of instructional design. // Journal of Instructional Development, 1987. 10(3). – P. 2–10.
7. Knowles, M. S. / The Adult Learner: A Neglected Species. Gulf Publishing. 1990 – 374 b.
8. Larkin, J. H., Simon, H. A. Why a diagram is (sometimes) worth ten thousand words. // Cognitive Science, 1987. 11(1). – P. 65–100.
9. Marzano, R. J. / The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. ASCD: 2007, – P. 221.
10. Nesbit, J. C., Adesope, O. O. Learning with concept and knowledge maps: A meta-analysis. // Review of Educational Research, 2006. 76(3), – P. 413–448.
11. Novak, J. D., Gowin, D. B. / Learning How to Learn. Cambridge University Press., 1984. – P. 199.
12. Wiggins, G. / Educative Assessment: Designing Assessments To Inform and Improve Student Performance. Jossey-Bass: Willey. 1998 – P. 361.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QXXX7513

8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI

Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

nilufarturgunova20@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8996-7300

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi 8-sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'quv loyihasiga namuna keltirilgan. Loyiha ishining qisqacha mazmuni, maqsad-vazifalari, tasnifi bayon etilgan. Loyiha asosida o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish yo'riqnomasi berilgan.

Kalit so'zlar: 8-sinf, loyiha ishi, o'quv-loyihaviy faoliyat, loyiha bosqichlari, loyiha turlari.

Аннотация. В данном тезисе приведён пример учебного проекта, который можно применять на уроках родного языка в 8-м классе. Представлены краткое содержание проекта, его цели и задачи, а также классификация. Также дана поэтапная инструкция по организации учебно-проектной деятельности учащихся на основе данного проекта.

Ключевые слова: 8 класс, проектная работа, учебно-проектная деятельность, этапы проекта, виды проектов.

Annotation. This thesis presents a sample educational project that can be implemented in 8th grade mother tongue lessons. It outlines the project's summary, objectives and tasks, as



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

